



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Umurzok Alibekov, Alisher Abdumatov, Ismoiljon Rayimjonov XVIII-XIX ASRNING BIRINCHI YARIMIDA EKOMUHITDAGI O'ZGARISHLAR, SIYOSIY- IJTIMOIY ETNIK JARAYONLAR XUSUSIDA.....	5
2. Nodira Babadjanova MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK BARQARORLIK OMILI SIFATIDA.....	10
3. Дилмурод Бабожонов ХОРАЗМ ХОНЛИГИДА МАХФИЙ МАҲКАМА ФАОЛИЯТИ.....	16
4. Эргашали Эркаев ЎЗБЕКИСТОНДА БИРИНЧИ БЕШ ЙИЛЛИК ДАВРИДА ИРРИГАЦИЯНИ ТИКЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ (1928-1932 йиллар).....	27
5. С.И.Габриэльян ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУСТАФЫ КЕМАЛЯ АТАТЮРКА: ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЕ.....	32
6. Zebo Ismatullayeva O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MUNOSABATLARIDA XALQ DIPLOMATIYASI O'RNI.....	43
7. Jaxongirbek Jonqobilov SURXONDARYO VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA PAXTACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI.....	50
8. Akmal Mengliboyev SOVET HOKIMYATI DAVRIDA SURXONDARYODAGI IJTIMOIIY QATLAMLARNING O'RNATILISHI: QATAG'ON VA JAMOALASHTIRISH SIYOSATINING TA'SIRI.....	55
9. Vafa Quliyeva, Qanira Pirkuliyeva THE ARAN-KARABAKH CARPET SCHOOL (the Karabakh School of carpet weaving).....	62
10. Ботиржон Тожибоев ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ ҚАРШИЛИК ХАРАКАТЛАРИ.....	70
11. Хулкар Холикулова ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ВА АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРИ: ЖАҲОН ҲАМЖАМИЯТИНИНГ ХАЛҚАРО ТАШАББУСЛАРИ.....	76
12. Бахтиёр Юлдашев, Гулсанам Тилавбаева “АНГРЕН – ПОП” ЭЛЕКТРЛАШТИРИЛГАН ТЕМИР ЙЎЛ ЛИНИЯСИ ҚУРИЛИШИ ВА УНИНГ МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИМИЗДАГИ ЎРНИ.....	81



Zebo Shukurjonovna Ismatullayeva,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti,
katta o'qituvchisi
zeboismatullayeva1987@gmail.com

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MUNOSABATLARIDA XALQ DIPLOMATIYASI O'RNI

For citation: Zebo Sh.Ismatullayeva. THE ROLE OF PUBLIC DIPLOMACY IN UZBEKISTAN-GERMANY RELATIONS. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 5, pp.43-49

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15587262>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston va Germaniya munosabatlarida xalq diplomatiyasini o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga O'zbekiston tashqi aloqalarida Germaniya bilan keng qamrovli hamkorlik masalalariga oid ilmiy adabiyotlar ham tahlil etilgan. Muallif davlatlararo munosabatlar rivojida xalq diplomatiyasi vositalaridan foydalanishning samaralari, o'tkazilgan madaniyat kunlari, turli festivallar, xalqaro konferensiyalar, kino va teatr haftaliklari doirasida o'tkazilgan tadbirlarni xalqlarni o'zaro yaqinlashtirish va bir-birlarini anglashdagi ahamiyati tahlil qilgan. Shuningdek, muallif O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi xalq diplomatiyasining rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari haqida ham o'z nuqtai nazarini bildirgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Germaniya, xalq diplomatiyasi, Gyote instituti, Fridrix Ebert jamg'armasi, xalqaro aloqalar, Yevropa Ittifoqi, Orol fojeasi, nemis tili, kino festivali, akademik almashuv dasturlari.

Зебо Шукурджонова Исмагуллаева,
Ташкентский университет прикладных наук,
старший преподаватель

РОЛЬ НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ОТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ГЕРМАНИИ

АННОТАЦИЯ

В статье уделяется внимание роли и значению народной дипломатии в отношениях между Узбекистаном и Германией. Кроме того, проводится анализ научной литературы, посвящённой вопросам всестороннего сотрудничества между Узбекистаном и Германией в сфере внешних связей. Автор рассматривает эффективность использования инструментов народной дипломатии в развитии межгосударственных отношений, анализирует значение проведённых Дней культуры, различных фестивалей, международных конференций, кино и театральные недели для сближения народов и взаимопонимания. Также автор высказывает свою точку зрения относительно направлений развития и перспектив народной дипломатии между Узбекистаном и Германией.

Ключевые слова: Узбекистан, Германия, народная дипломатия, Институт Гёте, Фонд Фридриха Эберта, международные отношения, Европейский Союз, Аральская трагедия, немецкий язык, кинофестиваль, программы академического обмена.

Zebo Sh.Ismatullayeva,
Tashkent University of Applied Sciences,
senior teacher

THE ROLE OF PUBLIC DIPLOMACY IN UZBEKISTAN-GERMANY RELATIONS

ABSTRACT

The article focuses on the role and significance of public diplomacy in Uzbekistan-Germany relations. Additionally, it analyzes scientific literature on the issues of comprehensive cooperation between Uzbekistan and Germany in the field of foreign relations. The author examines the effectiveness of using public diplomacy tools in the development of interstate relations, analyzing the importance of cultural days, various festivals, international conferences, film and theater weeks in bringing people closer together and fostering mutual understanding. Furthermore, the author expresses their viewpoint on the directions and prospects for the development of public diplomacy between Uzbekistan and Germany.

Index Terms: Uzbekistan, Germany, public diplomacy, Goethe Institute, Friedrich Ebert Foundation, international relations, European Union, Aral tragedy, German language, film festival, academic exchange programs.

1. Dolzarbligi:

O‘zbekiston Respublikasi jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari bilan turli sohalarda hamkorlik aloqlarini rivojlantirib kelmoqda. Bu aloqalarni samarali bo‘lishida diplomatiyaning turli vositalaridan foydalanishga harakat qilinmoqda. Ayniqsa, xalq diplomatiyasi vositalaridan foydalangan holda amalga oshirib kelinayotgan hamkorlik munosabatlari o‘zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Xalq diplomatiyasi – bu davlatning rasmiy diplomatik kanallaridan tashqari, jamoatchilik, fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlari va ayrim shaxslar orqali boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish va rivojlantirish jarayonidir. Bunda asosan, ta’lim, ommaviy axborot vositalari, turizm, san’at, madaniyat kunlari doirasidagi aloqalar ustuvorlik qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik Yevropaning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniya Respublikasi bilan rivojlantirilib kelinmoqda.

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy tahlil, ketma-ketlik, genetik, retrospektiv taxlil, analiz, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston va Germaniya munosabatlarining rivojlanishida xalq diplomatiyasining o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Maqolani tayyorlashda O‘zbekiston milliy arxivi, davriy matbuot nashrlari, ilmiy adabiyotlar, rasmiy ijtimoiy tarmoqlar, turli mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallardagi maqolalardan foydalanildi. O‘zbekistonning Germaniya bilan keng qamrovli hamkorligi oid ayrim tadqiqotlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ularning safiga S.Umarov[1], D.Misharev, A.Sultanov, L.Babaxodjayeva, E.Nuriddinov, D.Sayfullayev va S.Po‘latovalarni kiritish mumkin.

Masalan, S.Po‘latovanning ilmiy tadqiqotlarida ko‘proq, mustaqillikning ilk kunlarida xalqaro madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi va buning mamlakat barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati, S.Umarovning ilmiy tadqiqotlarida esa asosan O‘zbekistonning Germaniya bilan ma’orif va ma’naviy sohalardagi munosabatlarning ayrim jihatlariga oid materiallar taxlil etilganligini ko‘rish mumkin.

3. Tadqiqot natijalari:

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘zaro aloqalar aynan Temuriylar davridan boshlab yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Buni Germaniyalik sayyoh, Bavariya yeri Trosberg shahri fuqarosi Yoxanness Shiltbergerning XV asr boshiga tegishli yodnomasidan bilishimiz mumkin[2]. Taqdir taqozosi bilan 1402-1412-yillarda u 10 yildan ortiq vaqtini Amir Temur hamda uning o'g'illari Mironshoh va Shohrux bilan birga o'tkazadi. Bavariyaga qaytib kelgach, davlat xizmatida faoliyat olib borgan, shu bilan birga turli tillarda qayta-qayta chop etilgan xotiralari tufayli tarixchilar Amir Temur va Temuriylar imperiyasi haqida qimmatli ma'lumot ega bo'lganlar[3]. Albatta, milliy diplomatiyamiz rivojida Amir Temur va Temuriylar davri o'zining takomil darajaga chiqqanligi bilan ajralib turadi. Amir Temur tomonidan boshqa davlatlarga yuborilgan elchilar xalqaro va diplomatiya huquqi mezonlariga qat'iy amal qilganlar. Amir Temur diplomatiyasi mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik va jamiyki insoniy fazilatlarga yo'g'rilganligi, hatto u yengilgan raqibiga katta hurmat va jumardlik ko'rsatgan[4]. Va bu adolatli tashqi siyosat o'z davrida va bugun ham jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etib kelinmoqda.

Oradan olti asr o'tgach, tarixiy aloqalar yana jonlanib O'zbekiston va Germaniya munosabatlari yangi bosqichda rivojlana boshladi. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil yo'lga qo'yilgan, e'tiborli jihat shuki O'zbekistonning Yevropadagi birinchi elchixonasi ham 1994-yilda aynan Germaniya markazi bo'lgan Bon shahrida ochilgan edi. O'zaro munosabatlarni o'tgan 33 yillik davrdagi natijalarni sarhisob qilib, ilmiy tahlil etsak, ulkan yutuqlarga erishilganligi ayon bo'ladi.

Albatta, o'zaro munosabatlarni rivojlantirilishida siyosiy muloqotlarning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi. O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov va amaldagi Prezident Sh.Mirziyoyevlarning Germaniyaga, o'z navbatida Germaniya davlat rahbarlari A.Merkel, O.Shols va F.Shtaynmaerlarning O'zbekistonga davlat tashriflari, imzolangan muhim bitim va shartnomalar ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlanishiga zamin yaratib, istiqboldagi yangi hamkorlik yo'nalishlari uchun asos bo'lmoqda[5]. O'tgan qisqa davr mobaynida O'zbekiston va Germaniya o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida barqaror hamkorlik yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasida 130 dan ortiq hujjatdan iborat mustahkam huquqiy baza yaratilgan va barcha darajadagi munosabatlar uchun ishonchli mexanizm mavjud[6].

Yuqorida alohida ta'kidlanganidek, o'zaro hamkorlik aloqalarida xalq diplomatiyasining ajralmas qismi bo'lgan madaniy-gumanitar sohalaridagi munosabatlar alohida ajralib turadi. Chunki madaniy aloqalar xalqlarni yaqinlashtirib, ruhiy jihatdan jipslashtirib, o'zaro bir-birlarini anglashga yordam beradi. Va albatta, bu jarayonlar davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi.

O'zaro xalq diplomatiyasining yo'lga qo'yilishi va rivojlanishida poytaxt shaharlar Toshkent va Berlin o'rtasidagi hamkorlikning mustahkam yo'lga qo'yilganligi ham katta ahamiyatga ega. Ikki tomonlama munosabatlar tarixiga nazar solar ekanmiz, ularning ko'lami ancha keng qamrovli ekanligini ko'ramiz. Jumladan, madaniyat kunlari, san'at festivallari, kino va teatr, fan, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, sog'liqni saqlash va sport sohalaridagi hamkorlik ayniqsa samarali kechmoqda.

Germaniyada so'nggi yillarda O'zbekiston tarixi, san'ati va madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Bunga 2000-2025-yillar davomida O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida yirik shaharlari bo'lgan Berlin, Potsdam, Dortmund, Bonn, Shtutgart, Gamburg, Myunxen, Gannover, Visbadenlarda O'zbekistonning musiqa, tasviriy va teatr san'ati keng namoyish etilganligi buning yorqin misolidir[7]. O'z navbatida bu davrda respublikamizda ham Germaniya madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o'tkazib kelinganligini manbalar tasdiqlaydi.

O'zbek – nemis madaniy hamkorligi ikki davlatda o'tkazilib kelinayotgan madaniyat kunlari bilan mustahkamlanib kelmoqda[8]. Ana shunday ko'rgazmalardan biri 2016 yilning mart oyida Germaniyaning bir nechta shaharlarida O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida o'tkazildi[9]. Tadbirda yurtimizning boy tarixi va madaniyatiga oid qilingan ma'ruzalar hamda qadriyatlarimizni tarannum etuvchi taqdimotlar ishtirokchilarda kuchli taassurot uyg'otdi. Shu bilan birga hamkorlik rishtalarini yanada kuchaytirish istaklari paydo bo'lganligini ham o'zlari ta'kidlashdi.

Germaniyada ikki tomonlama munosabatlar faollashgani fonida O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi va sayyohlik salohiyatiga qiziqish ham ortib bormoqda. Xususan,

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil sentyabr oyidagi Germaniyaga davlat tashrifi doirasida germaniyalik hamkasbi bilan birgalikda Berlindagi Jeyms Simon galereyasida tashkil etilgan “O‘zbekiston arxeologik xazinalari – Aleksandr Makedonskiydan Kushonlar davrigacha” ko‘rgazmasining ochilishida qatnashdi. Ko‘rgazma 2024-yil 14-yanvarga qadar davom etdi va uning faoliyati davomida Germaniya jamoatchiligi hamda mamlakat mehmonlarini o‘zbek xalqining boy tarixi, betakror madaniyati va an‘analari bilan tanishtiruvchi turli madaniy tadbirlar o‘tkazilgan. Ushbu madaniy tadbirni yana bir muhim jihati, unda yurtimizning betakror madaniyati, san‘ati va tarixiga oid Respublikamizdagi 9 ta muzey kolleksiyasidan tanlab olingan 285 ta tarixiy ashyolarni ko‘rgazmada namoyish etilishi bo‘ldi. Uni tomosha qilgan har bir kishi qariyb to‘rt ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixi va mutafakkirlarimizning jahon tamadduniga qo‘shgan munosib hissasi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishdi.

O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya madaniy hamkorligida musiqa va raqs san‘ati sohasi alohida ahamiyat kasb etib, o‘tgan davr mobaynida bir qator tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, O‘zbekistonning mashhur Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” xalq raqs ansambli 1995-yil oktabr oyida “Berlin – Branderburg” jamiyati tomonidan uyushtirilgan O‘zbekiston haftaligida ishtirok etdi. Germaniyada boshlangan madaniy tadbirlar M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida davom etadi. Bu yerda 1995-yil dekabr oyida o‘tkazilgan “Organ musiqasi” festivalida Germaniyalik musiqachilarning ishtiroki bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlandi. Shunday tadbirlardan biri, 1996-yil 10–17-oktyabr kunlari Germaniyaning Berlin shahrida joylashgan Bax nomidagi musiqa gimnaziyasi vakillari tashrifi bilan Toshkentda bir nechta tadbirlar tashkil etildi[10].

Ushbu jarayonni quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin. 1997-yil Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Sarq taronalari” festivalida jami 31 mamlakat va 2 ta xalqaro tashkilot vakillari qatnashgan bo‘lsa, ulardan 6 tasi Yevropa Ittifoqiga to‘g‘ri kelib, 23 nafar musiqa ustalari ishtirok etgan[11]. 2024-yil o‘tkazilgan festivalda esa 300 ta ishtirokchi 70 ga yaqin mamlakatdan qatnashgan bo‘lsa[12], ularning orasida faol ishtirok etuvchilar qatorida Germaniyani ham tilga olish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Germaniyadagi elchixonasi taklifiga va Madaniyat ishlari vazirligining tavsiyasiga binoan 2000-yil 3-10-iyul kunlari Germaniyaning Bremen shahrida Yevropa davlatlarining regional musiqa va raqs festivali bo‘lib o‘tdi. Unda Yevropadan Angliya, Germaniya, Chexiya, Italiya, Portugaliya, Fransiya davlatlari qatorida O‘zbekistondan “Umid” xalq folklor-raqs jamoasi qatnashdi. Festival davomida “Umid” xalq dastasining raqqosasi N.Abdullayeva, raqqosalar A.To‘xtasinova, Sh.Raximova, surnaychi A.Xojiboyev, ayniqsa, raqqosbaletmeyster R.Abdullayevlarning san‘atlari yuqori baholandi[13].

Xalq diplomatiyasining eng ta’sirli vositalaridan biri bu kino va teatr sohasidagi hamkorlik hisoblanadi. Va o‘z navbatida Yevropa ekranlarida o‘zbek milliy filmlarini namoyish etilishi ham madaniyatlara muloqotni yuzaga kelishida katta o‘rin tutadi. Shu bilan birga Xalq diplomatiyasining asosiy maqsadi davlatlararo hamkorlikni kengaytirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash, mamlakatning ijobiy imijini yaratish ekanligiga e’tibor qaratsak, bu yo‘nalish aynan shunga xizmat qiladi. Bu ikkala san‘at sohasi xalqlarning bir-biri bilan yaqinlashuviga va sahna ko‘rgazmalari orqali milliy madaniyat yutuqlari haqidagi taassurotga ega bo‘lishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz teatr va kino ustalari Germaniyaning ko‘plab shaharlarida, jumladan, Tyubing, Berlin, Kotbus, Manxaym, Myulxaymda o‘tkazilgan festivallarda ham faol ishtirok etib kelmoqda[14]. Ushbu madaniy muloqot, nemis tomoshabinlarida katta qiziqish uyg‘otib, yurtimizdagi noyob tarixiy yodgorliklarni, me’morchilikni nodir namunalarini, milliy an‘ana va qadriyatlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish istagi paydo bo‘lganligini ta’kidlashdi. Bularning barchasi yurtimizga keluvchi sayyohlar oqimini ham ko‘payishiga xizmat qiladi.

Shu asosda, o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya o‘rtasida ko‘plab turli tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Masalan, 1993-yil oktyabrda O‘zbekistonda birinchi marta “Teatr: Sharq-G‘arb” xalqaro teatr festivali tashkil etildi. Ushbu festivalda dunyoning 25 ta mamlakat vakillari jumladan, Germaniya ham ishtirok etdi[15] va ushbu festival an’anaviy tarzda o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yillarida Toshkentda Yevropa kino festivalini o‘tkazish an’anaga aylandi. 1999-yil Yevropa Ittifoqining to‘rtta davlati – Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya va Fransiya elchixonalari tashabbusi bilan kino festivali tashkil etildi.

Germaniya dunyoda o‘zining madaniyati, tili va san’atini targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli faoliyatni yo‘lga qo‘ygan. Bunda Gyote instituti, Konrad Adenauer va Fridrx Ebert jamg‘armalarining o‘rni katta hisoblanadi. O‘zbekiston bilan ham munosabatlarni rivojlantirishda, o‘zbek yoshlariga nemis tilini o‘rgatish, turli ta’lim dasturlari doirasida ularni Germaniyada tahsil olishlariga ko‘maklashuvda aynan ushbu nodavlat tashkilotlarning xizmatlari beqiyos bo‘lmoqda[16].

Bundan tashqari xalqlarni yanada yaqinlashtirish, madaniy almashinuvlarni kuchaytirish, ta’lim sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishtirish, san’at festivallari va madaniyat kunlarini tashkil etishda Germaniya akademik almashinuvlar xizmati, Germaniya oliy o‘quv yurtlari, universitetlari rektorlari konferensiyasi, “Doyche Velle” telekompaniyasi, Toshkent va bir nechta viloyatlarda bo‘limlari bo‘lgan “Vidergeburg” nemis madaniy markazi, “O‘zbekiston – Germaniya” do‘stlik jamiyati, “EPOG” Berlin jamoat-madaniy birlashmalari katta hissa qo‘shmoqdalar.

Ushbu jamg‘armalar faoliyatida ijtimoiy-gumanitar maqsadlarda amalga oshirilgan loyihalar ham ancha salmoqlikdir. Adenauer jamg‘armasi ko‘magida Sant-Augustin shahrida “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni” mavzuida ilmiy konferensiya, “Orol ekologik fojiasining milliy va xalqaro aspektlari” simpoziumlari o‘tkazildi. Orol global muammosiga bag‘ishlangan hujjatli film jurnalistlar guruhi va nemis ijodiy ziyolilari vakillari tashabbusi bilan olindi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘istondagi bolalar kasalxonalariga dori-darmonlar va tibbiyot uskunalari uchun mablag‘ yig‘ish tashkil qilindi, shuningdek, bu hududda suv tozalash inshootlarini yaratish uchun mablag‘ to‘plandi. Ta’kidlash joizki, Germaniya Orolbo‘yi mintaqasi uchun maqsadli jamg‘armani qo‘llab-quvvatlashga katta hissa qo‘shmoqda. Jumladan, 2023-yilning mart oyida jamg‘arma faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kelishuv imzolangan bo‘lib, unda Germaniya hukumati tomonidan og‘ir ekologik vaziyatning Orolbo‘yi aholisiga salbiy ta’sirini kamaytirishga maqsadli yordam ko‘rsatish uchun 700 ming dollar ajratish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Orolbo‘yida qo‘shma dasturlar va moliyaviy ko‘mak tufayli oziq-ovqat, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, sog‘liqni saqlash muammolarini hal etish imkonini beryapti. Bu yordamlardan maqsad Orolbo‘yi aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. O‘z navbatida ushbu yordamlar xalq diplomatiyasining yorqin ifodasi hisoblanadi.

Xalq diplomatiyasining eng rivojlangan yo‘nalishlaridan biri bu ta’lim sohasidagi hamkorlikdir. O‘zbekistondagi ko‘plab universitetlar Germaniyaning nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan keng ko‘lamli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ular sirasiga O‘zbekiston eng obro‘li oliy ta’lim maskanlari bo‘lgan Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetlarining Germaniyadagi Gumboldt nomidagi hamda Bamberg va Gyotgingen shaharlaridagi universitetlar bilan hamkorligi samarali rivojlanib kelmoqda. Qisqa davrda talabalar almashinuvi va professor-o‘qituvchilarni malakasini oshirish hamda stajirovkalar bo‘yicha yaxshi natijalarga erishildi.

4. Xulosalar:

Demak, O‘zbekiston Respublikasining Germaniya bilan xalq diplomatiyasi yo‘nalishidagi hamkorlik masalalarini tahlil qilib turli mamlakat xalqlari taraqqiyot darajasi va madaniy turmush-tarzi har xil bo‘lishiga qaramasdan, o‘zaro aloqalarni kengaytirishdan manfaatdorligini ko‘rish mumkin. Fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar bilan tajriba almashish davlatlararo aloqalar rivojida muhim o‘rin tutib, o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Muxtasar aytganda, O‘zbekiston va Germaniya munosabatlarining bugungi rivoji o‘zaro hurmat va manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklikni yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Иқтибослар/ Сноски/References:

- 80-Умаров С. Ўзбекистон – Германия ҳамкорлиги тарихи. -Самарқанд. 2022. - 232 б. (Umarov S. History of Uzbek - German cooperation. - Samarkand. 2022. - 232 p.)
- 81-Қосимов Н (Ўзбекистоннинг ГФРдаги элчиси). Тарих, бугун, келажакни туташтирган ҳамкорлик // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 16.(N. Kossimov (Ambassador of Uzbekistan to Germany). History, today, and the future // Current issues. - Tashkent, 2021. – No. 2. – S. 16.)
- 82-Темур тузуқлари. - Т.: “Шарқ”, 2005. – 160 б.(Temur's Code. - T.: “Sharq”, 2005. – 160 p.)
- 83- Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент, Шарқ нашриёти. 1997. – Б. 261. (Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnama. Tashkent, Sharq Publishing. 1997. – p. 261.)
- 84-Ўзбекистон Президенти ва Германия канцлери бир-бирларини қутладилар // Халқ сўзи. – 2017. – 14 март. (The President of Uzbekistan and the Chancellor of Germany congratulated each other // People's Word. – 2017. – March 14)
- 85-Оксаройда қабул // Халқ сўзи. – 2016. – 31 март. (Acceptance in Oksaroy // People's word. – 2016. – March 31.)
- 86-Султанов А.В. Сотрудничество Узбекистана в области культуры с Германией как одно из проявлений духовного взаимообогащения и содействия диалогу культур // Ёшлар тарбиясида толерантлик давр талаби. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – Б. 324. (Sultanov A. V. Sotrudnichestvo Uzbekistana v oblasti kulturey s Germaniey kak odno iz proyavleniy dukhovnogo vzaimoobogashcheniya i sodeystviya dialogu kultur // Tolerance in youth education is the demand of the times. Proceedings of the republic scientific-practical conference. - Tashkent: UzMU, 2008. - B. 324.)
- 87-Ўзбекистоннинг тарихи буюк, келажак ҳам буюк бўлажак // Ўзбекистон овози. – 2001. – 12 июнь. (Uzbekistan's history is great, its future will be great too // Voice of Uzbekistan. – 2001. – June 12.)
- 88-Германияда Ўзбекистон маданияти кунлари // Халқ сўзи. – 2016. – 30-март. (Days of Uzbek Culture in Germany // People's Word. – 2016. – March 30.)
- 89-НАУз. Отчёт о работе отдела стран Европы, Америки и Японии НАМС РУ в октябре 1996 г // Ф-м-2, д – 164, л –13. (National Archives of Uzbekistan.)
- 90-Report on the work of the Department of European, American and Japanese Countries of NAMS RU in October 1996 // F-m-2, d – 164, l –13.)
- 91-ЎЗМА. Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлиги // “Шарқ тароналари” халқаро мусика фестивалларида қатнашган ва таклиф этилиши режалаштирилган иштирокчилар ҳамда ижрочилар ҳақида қиёсий маълумот. Фонд – м -38, рўйхат – 1, жилд – 343. варақ –4. (National Archives of Uzbekistan. Ministry of Culture and Sports of the Republic of Uzbekistan // Comparative information on participants and performers who have participated in and are planned to be invited to the international music festivals “Sharq Taronalari”. Fund – m -38, list – 1, volume – 343. sheet –4.)
- 92-Safarovich, S.S., & Odiljonovich, I.F. (2020). Symbiosis of civilizations as an important factor in the formation and development of scientific thinking in Uzbekistan. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 1-12.
- 93-Ўз МА. Тошкент шаҳар Шайхонтохур тумани “Ибн Сино” маданият Маркази қошидаги “Умид” халқ фольклор-ракс дастасининг 2000 йил 3–10 июл кунлари Германия-Бремен шаҳрида бўлиб ўтган Европа давлатлари регионал фестивалига доир ҳисоботи // Фонд– М-7, рўйхат -1, жилд – 719, варақ – 27. (National Archives of Uzbekistan. Report of the “Umid” folk folklore and dance group under the “Ibn Sino” Cultural Center of Shaykhantohur district of Tashkent city on the regional festival of European countries held in Bremen, Germany, on July 3-10, 2000 // Fund – M-7, list -1, volume – 719, sheet – 27.)
- 94-НА РУз. Национальной Ассоциации международных культурно-просветительских связей Республики Узбекистан // Папка Информации о культурном сотрудничестве между

министерством по делам культуры РУз и зарубежными странами. 1995–1999 гг. Фонд– М-7, оп -1, д – 719, л – 30. (National Archives of Uzbekistan. National Association of International Cultural and Educational Relations of the Republic of Uzbekistan // Folder of Information on Cultural Cooperation between the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan and Foreign Countries. 1995–1999. Fund – М-7, op-1, d – 719, l – 30.)

95-Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 62. (Babakhodjaeva L. International cultural and humanitarian cooperation of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Fan, 2007. – P. 62.)

96-Ўзбекистон – Германия: янги мазмун касб этган ҳамкорликни мустаҳкамлаш йўлида // Халқ сўзи. –2019. – 20 январь. (Uzbekistan - Germany: towards strengthening cooperation with a new meaning // People's Word. -2019. - January 20.)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 5

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000